

Date: 7th March-2026

ORTOPEDIK VA PROFILAKTIK POYABZAL O'ZI NIMA

Muhammadusmonov Sarvar

Respublika imkoniyati cheklangan shaxslar uchun
ixtisoslashtirilgan maxsus texnikum maxsus fan o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada oyog'ida nuqsoni bor insonlar uchun maxsus poyabzal ishlab chiqarishga qo'yiladigan asosiy talablar ko'rib chiqiladi, ular quyidagilarni ta'minlashi kerak: kiyish qulayligi, himoya xususiyatlari, ta'mirlanishi, qulayligi, gigiyena va boshqalar.

Kalit so'zlar: Ortopedik poyabzal, profilaktik poyabzal, anatomik poyabzal, yarim ortopedik poyabzal.

Poyabzalning ushbu turiga davolov oyoq kiyimlari kiradi. Ortopedik modellarni kiyib yurish oyoq kaftining, hamda umuman tayanish-harakatlanish apparatining mavjud nuqsonlarini so'zlab rostlashga ko'maklashadi, ayniqsa, gap yosh bolalar haqida ketayotgan hollarda bu o'ta muhimdir.

Shuni unutmaslik lozimki, bunday poyabzalidan faqatgina tibbiy ko'rsatmalar mavjudligida foydalanish mumkin, holos. U buyurtmaga ko'ra yasaladi, chunki har bir yosh bola muayyan tashhezga (diagnozga) ega bo'libgina qolmay, balki oyoq kaftining o'ziga hos bo'lgan xususiyatlariga ham ega. Undan tashqari, go'dak oyoqlarining o'zlari ham ko'pincha bir-biridan farqlanadi.

Bu xildagi poyabzalni sotib olishdan avval ortoped bilan maslahatlashing, hamda yasatishga yo'llanma oling. Aks holda, ortopedik poyabzalni kiyib yurish noqulaylik tug'dirib, oyoq kaftining yangi qiyshayishlariga olib keladi, hamda bolakayga faqat ziyon yetkazadi.

Bolalar ortopedik poyabzaliga qanday qilib buyurtma bersa bo'ladi, hamda bunda nimalarga e'tibor qaratmoq lozim?

Hullasi-kalom, sotib olingan poyabzalning jajji egasiga maksimal darajada foyda berishi uchun bolalar poyabzaliga buyurtma berishda nimani hisobga olish kerak?



Date: 7th March-2026

1. Yuqori sifatli materiallar.

Ravshanki, maksimal darajada qulaylik bilan kiyib yursin uchun ota-onalar o'z farzandlariga tabiiy materiallardan yoki ularning yuqori sifatli sintetik o'rindoshlaridan qilingan poyabzal tanlab olishi kerak. Bolakayning oyoqlari hatto oyoq kiyim ichida ham "nafas" ola bilishi kerak. Shuning uchun quyidagilarni sotib olgan ma'qul:

- charmdan qilingan ortopedik poyabzal;
- sun'iy charmdan qilingan modellar;
- nubukdan qilingan ortopedik poyabzal.

Tag charmchi? Bizning amaliyot shuni ko'rsatadiki, yemirilishga qarshi chidamlilikni quyidagi materiallardan qilingan tagcharmilar namoyon qiladi:

- TEP – termoplastik rezina asosida yaratilgan prinsipial jihatdan yangi material. Zamonaviy texnologiyalar sharofati bilan mazkur materialdan qilingan tagcharm umuman kamchiliklardan holidir;
- termik kauchuk. Yemirilishga qarshi yuqori chidamlilikdan tashqari ushbu materiallar yana bir qo'shimcha afzallikka ega – ular sirpanib ketishga qarshi barqarordir. Mazkur o'ziga hos hususiyat bolakay yangi poyabzalda sirpanib ketmasligi va yiqilmasligining kafolatidir.

2. Bola uchun qulaylik va o'ng'aylik

Ortopedik poyabzal davolov uchun mo'ljallangan bo'lsa ham, bolakayning qulayliklarini unutmaslik lozim. Hatto poyabzal buyurtmaga muvofiq qilingan bo'lsada, bolangiz o'zini yangi oyoq kiyimida qanday his qilayotganiga e'tibor qarating, va hech qachon ortopedlarning tayyor modellarini zinhor-bazinhor sotib olmang! Muayyan inson oyoq kaftining o'ziga hos hususiyatlarini e'tiborga olmay yaratilgan, bunday modellarni kiyib yurish bola sog'lig'iga zarar yetkazishi mumkin.

Profilaktik poyabzal: o'ziga hosliklar.

Profilaktik yoki yarimortopedik (shuningdek anatomik yoki oqilona deb yuritiluvchi) poyabzal yassitovonlik (yalpoq oyoqlilik) va boshqa xildagi patologiyalarning ular rivojlab ulgurmaganigacha oldini olish uchun ishlatilishi mumkin.



Date: 7th March-2026

Hozirgi kunda bolalar uchun ortopedik poyabzal ochiq savdoda mavjud. Ya'ni, uni yasash maqsadida yollash uchun ustani qidirib yurmay, jo'ngina asnoda Persey.uz. onlayn-do'konidan sotib olish ham mumkin.

Anatomik poyabzal ortopediyaning, profilaktikaviy xildagi bolalar poyabzaliga qo'yiladigan, umumiy standartlarini e'tiborga olgan holda, ommaviy tarzda ishlab chaqariladi. Bunday poyabzalni kiyib yurish bola rivojining barcha bo'sqilarida ham uning oyoq kaftlari to'g'ri shakllanishining ishonchli garovidir. Bu shuni anglatadiki, bunday poyabzalni harid qila turib, ota-ona turli hildagi nuqsonlar, patologiyalar va hokazolar vujudga kelishining ehtimolini amalda butkul istisno qila oladi.

Bolalar uchun profilaktik poyabzalning asosiy o'ziga hos hususiyatlari qatoriga shuningdek quyidagilarni ham kiritish mumkin:

-agarda ortopedik poyabzal o'zining konstruksiyaviy o'ziga hosliklari tufayli oyoq kaftini korreksiya qila bilsa, yarim ortopedlar esa oyoq kaftiga mostlashib oladi, hamda shu bilan bir vaqtning o'zida uning noto'g'ri rivojlanishiga qarshilik ko'rsatadi;

-profilaktik poyabzal har kuni surunkasiga kiyib yurishga mos kelsada, uni shuningdek kuniga 2-3 soat davomida kiyib yursa ham bo'laveradi;

-anatomik poyabzalni tibbiy talabdan qat'iy nazar ham kiyib yurish mumkin. Uni kiyib yurish bolaning sog'lig'iga putur yetkazmaydi, bilaks – juda ko'p foyda berishi ham mumkin.

Eng muhimi: profilaktikaviy va ortopedik poyabzal o'zaro o'rindosh emas, ya'ni ulardan birining o'rniga ikkinchisini kiyish nomaqbuldir!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.A. Xaydarov, A. Kamalov. «Charm buyumlarini konstruksiyalash»
2. Fukin V.A., Kalita A.N., «Texnologiya izdeliy iz koji» M. 1988 g. Legprombotizdat. Str. 3-5.
3. A.A.Haydarov “Poyabzal va charm attorlik buyumlarini modellashtirish asoslari”
4. A.A.Haydarov Amaliy antropologiya va biomexanika asoslari. Toshkent 2011yil
5. «Praktikum po texnologii izdeliy iz koji».Pod redaktsiey Rayatskasa V.P., M. 1981

